Tahlilda samaradorlikni baholash uchun stoxastik chegara tahlili metodi qo'llanildi. Bu uslub samaradorlikni baholashda keng qo'llanadigan parametrik yondashuvlardan biri bo'lib, uning eng muhim jihati – natijalarga ta'sir qiladigan tasodifiy omillarni ajratib olish va ularni samaradorlik hisobidan chiqarish imkoniyati mavjudligi hisoblanadi. Banklar faoliyatiga iqtisodiy o'zgarishlar, tashqi bozor shoklari yoki ma'lumotlardagi o'lchash xatolari ko'pincha samaradorlik ko'rsatkichlarini sun'iy ravishda pasaytiradi yoki oshiradi. SFA ushbu holatlarda «shovqin»ni aniqlab, haqiqiy samaradorlikka yaqin baholarni beradi. Shuningdek, bu uslub samaradorlikning yuqori chegarasini belgilab, har bir bankni eng yaxshi amaliyot ko'rsatgan banklar bilan solishtirish imkonini ham taqdim etadi.

Stoxastik chegara tahlili uslubi samaradorlikni baholashda tasodifiy omillar ta'sirini ajratib olib, haqiqiy natijalarga yaqin baholarni taqdim etadi va har bir bankni samaradorlik nuqtai nazaridan eng yaxshi bank amaliyoti bilan solishtiradi. Xarajat samaradorligi modelda banklarning jami xarajatlari. Modelda vaqt trendi texnologik o'zgarishlar ta'sirini hisobga olish uchun, bank kapitali esa kapital miqdori va tuzilishi samaradorlikka qanday ta'sir qilayotganini baholash uchun nazorat o'zgaruvchilari sifatida kiritildi.

Bank xizmatlari va mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoniga kiruvchi [input] omillar sifatida jalb qilingan mablag'lar, asosiy vositalar va ishchi kuchi narxlarini olindi. Ishlab chiqarish jarayonining chiquvchi [output] omillari sifatida esa kreditlar, boshqa daromad keltiruvchi aktivlar va foizsiz daromadlar qo'llanildi¹. Ma'lumotlar 1999–2023-yillar davrida faoliyat yuritgan barcha banklarni qamrab oldi. Ma'lumotlar Bank Axborotnomasi gazetasida va tijorat banklar veb-sahifasida e'lon qilingan yillik hisobotlar asosida to'plandi. Inflyatsiya ta'sirini bartaraf etish maqsadida barcha ko'rsatkichlar 2008-yil narxlariga indeksatsiya qilindi. Tijorat banklari mulkchilik shakliga ko'ra 4 ta guruhga ajratildi. Birinchi guruhda davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari, ikkinchi guruhga davlat bilvosita egalik qiluvchi tijorat banklari, uchinchi va to'rtinchi guruhdagi banklar xususiy va xorijiy banklarga mos ravishda ajratildi. Ustav kapitalida davlat ulushi 100% bo'lgan tijorat banklari – davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari (bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, bunday mulkchilik shakliga ega banklar mamlakatimizda 3 ta: «Milliybank» AJ, «Xalqbanki» ATB va «Asakabank» ATB), ustav kapitalida davlat ulushi ma'lum darajada mavjud bo'lgan tijorat banklari – davlat bilvosita egalik qiluvchi tijorat banklari (masalan: «Agrobank», «Sanoatqurilishbank», «Aloqabank» kabi banklarni kiritish mumkin) hamda boshqa xususiy va xorijiy turdagi mulkchilik shakllariga ega bo'lgan tijorat banklari. Bizda tijorat banklari ustav kapitali davlat ulushi miqdori bo'yicha yetarli ma'lumot bo'lmaganligi uchun cheklangan ma'lumotlar yordamida banklar guruhlariga ajratildi.

1-jadval. Omillar tasviriy statistikasi. (million so'mda berilgan)

O'zgaruvchilar	Kuz.	O'rtacha	Std. og'.	Min	Maks
Jami xarajatlar*	674	132000	272000	26.921	2130000
Sof soyfa*	672	28800	95300	-77600	1270000
Jami kreditlar*	676	1230000	3190000	0	25100000
Investisiyalar*	677	41200	146000	0.27	1950000
Foizsiz daromad*	674	48000	271000	80.93	6820000
Jami jalb qilingan kapital narxi	674	0.10	1.00	0.00	18.63
Asosiy vositalar narxi	673	1.30	6.42	0.03	130.14
Ishchi kuchi narxi	673	0.03	0.03	0.00	0.24
Bank kapital*	676	233000	562000	88.13	5200000

1 Ushbu omillar tasviriy statistikasi Илова-З да келтирилди.



Xarajatlar bo'yicha samaradorlikning stoxastik chegaraviy tahlil modeli umumiy holda quyidagicha:

$$TC_{it} = f(Y_{it}, W_{it}, Z_{it}; \beta) + v_{it} + u_{it} \quad (1.1)$$

bunda Y_{it} – i bankning t davrdagi jami xarajatlari; W_{it} va Z_{it} – i bankning t davrdagi xizmatlari va xarajatlar narxining vektori; f – natijalar izchilligi va robustligini tekshirish uchun kiritilgan nazorat qiluvchi o'zgaruvchilar; β – texnologik parametrlar vektori; v_{it} – statistik xatolik; samarasizlik ko'rsatkichi u_{it} bo'lib u mustaqil ammo barcha banklar uchun turlicha bo'lgan musbat qiymatli normal taqsimotga ega.

Banklar samaradorligini baholashda keng qo'llaniladigan funksional shakl – transsendental logarifmik shakldan foydalanildi. Xarajatlar bo'yicha chegaraviy empirik model quyidagi shaklda yozildi:

$$\begin{aligned} \ln(TC_{it}) = & \alpha + \sum_{m=1}^3 \beta_m \ln y_{mit} + \frac{1}{2} \sum_{m=1}^3 \sum_{n=1}^3 \beta_{mn} \ln y_{mit} \ln y_{nit} \\ & + \frac{1}{2} \sum_{j=1}^3 \sum_{k=1}^3 \gamma_{jk} \ln w_{jit} \ln w_{kit} + \sum_{j=1}^3 \gamma_j \ln w_{jit} \\ & + \frac{1}{2} \sum_{m=1}^3 \sum_{j=1}^3 \psi_{jm} \ln y_{mit} \ln w_{jit} + \theta_1 T + \frac{1}{2} \theta_2 T^2 + \sum_{m=1}^3 \kappa_m \ln y_{mit} T \\ & + \sum_{j=1}^3 \rho_j \ln w_{jit} T + \pi_1 \ln z_{it} + \frac{1}{2} \pi_2 \ln z_{it}^2 + \sum_{m=1}^3 \tau_m \ln y_{mit} \ln z_{it} \\ & + \sum_{j=1}^3 \varphi_j \ln w_{jit} \ln z_{it} + \phi \ln z_{it} T + v_{it} + u_{it} \end{aligned} \quad (1.2)$$

bunda $\ln(TC_{it})$ – jami xarajatlar logarifmi, $\ln y_{mit}$ – t davrdagi i bankning m turdagi xizmatlari hajmining logarifmi, $\ln w_{jit}$ – t davrdagi i bankning j turdagi xarajatlari narxining logarifmi, T esa vaqt trendi bo'lib, u bank tizimidagi texnologik o'zgarishlarni ifodalaydi. banklarning xarajatlar bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichi bo'lsa, lar ekonometrik baholanadigan koeffitsiyentlardir. u_{it} – esa statistik xatolikni ifodalaydi.

$$\begin{aligned} \ln\left(\frac{TC_{it}}{w_{3it}}\right) = & \alpha + \sum_{m=1}^3 \beta_m \ln y_{mit} + \frac{1}{2} \sum_{m=1}^3 \sum_{n=1}^3 \beta_{mn} \ln y_{mit} \ln y_{nit} \\ & + \frac{1}{2} \sum_{j=1}^3 \sum_{k=1}^3 \gamma_{jk} \ln\left(\frac{w_{jit}}{w_{3it}}\right) \ln\left(\frac{w_{kit}}{w_{3it}}\right) + \sum_{j=1}^3 \gamma_j \ln\left(\frac{w_{jit}}{w_{3it}}\right) \\ & + \frac{1}{2} \sum_{m=1}^3 \sum_{j=1}^3 \psi_{jm} \ln y_{mit} \ln\left(\frac{w_{jit}}{w_{3it}}\right) + \theta_1 T + \frac{1}{2} \theta_2 T^2 \\ & + \sum_{m=1}^3 \kappa_m \ln y_{mit} T + \sum_{j=1}^3 \rho_j \ln(w_{jit}/w_{3it}) T + \pi_1 \ln z_{it} + \frac{1}{2} \pi_2 \ln z_{it}^2 \\ & + \sum_{m=1}^3 \tau_m \ln y_{mit} \ln z_{it} + \sum_{j=1}^3 \varphi_j \ln(w_{jit}/w_{3it}) \ln z_{it} + \phi \ln z_{it} T \\ & + v_{it} + u_{it} \end{aligned} \quad (1.3)$$

Jami xarajatlar foizli va foizsiz xarajatlar, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar hamda boshqa operasion xarajatlardan iborat. Xizmatlar esa mijozlarga ajratilgan umumiy kreditlar (K_{it}), boshqa daromad keltiruvchi aktivlar (A_{it}) va foizsiz daromadlardan (D_{it}) tarkib topgan. Xarajatlar narxi ham uch xil turga ajratilgan: jalb qilingan mablag'lar narxi (P_{it}) – jami foizli xarajatlarning jami majburiyatlarga nisbati, asosiy fondlar narxi (F_{it}) – boshqa operasion xarajatlarning jami asosiy vositalarga nisbati, ishchi kuchi narxi (L_{it}) – proksi sifatida ishchi kuchi xarajatlarning aktivlarga nisbati olindi. Shuningdek, vaqt trendi (T) va bank kapitali (K_{it}) nazorat qiluvchi o'zgaruvchilar sifatida modelga qo'shildi. Bank kapitalini mustaqil o'zgaruvchi sifatida modelga kiritilishi O'zbek banklarini xarajatlar



bo'yicha samaradorligini baholash modellarida ilgari qo'llanilmagan. Sh.Xannayev (2019b, 2019a, 2020) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda cheragaviy empirik modelga bank kapitali () mustaqil o'zgaruvchi sifatida kiritilmasdan amalga oshirilgan, bu o'z navbatida banklarning kapital hajmi katta kichikligidan yuzaga keladigan xarajatlaridagi o'zgarishlar e'tibordan chetda qolishiga olib kelgan. O'zgaruvchilarni normallashtirish uchun mustaqil o'zgaruvchi va omillar narxi jalb qilingan mablag'lar narxiga nisbati shaklida transformatsiya qilind


TAHLIL VA NATIJALAR

Stoxastik chegara tahlili modelida² baholangan O'zbekiston tijorat banklarining xarajatlar bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichi tasviriy statistikasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Xarajatlar bo'yicha parametrik usulda baholangan samaradorlik.

Banklar	Soni	O'rtacha	Std.og'	Min.	25%	50%	75%	Mak.
Davlat tijorat banklari	73	0.571	0.109	0.439	0.486	0.523	0.697	0.756
Aksiyadorlik tijorta banklari	251	0.629	0.085	0.403	0.587	0.642	0.678	0.922
Xususiy banklar	247	0.670	0.164	0.339	0.538	0.663	0.751	1.000
Xorijiy banklar	97	0.609	0.151	0.344	0.530	0.617	0.689	0.928
Jami banklar	668	0.635	0.135	0.339	0.538	0.640	0.697	1.000

Yuqoridagi jadvaldan, tahlil davrida o'rtacha samaradorlik ko'rsatkichi 63.5% ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin³. Umumiy tebranish 34-100% diapazonda bo'lganligini ko'rish mumkin. Mediana va o'rtacha orasidagi farqning kichkina ekanligi va taqsimot o'ngga biroz siljiganini ko'rish mumkin. Kuzatuvlarning kvartillararo oraliqda joylashganlari esa 54-70% oralig'ida tebrangan. Ushbu usulda hisoblangan samaradorlik ko'rsatkichi o'rtachasi bo'yicha eng past samaradorlik davlat bevosita egalik qiluvchi banklarga tegishli bo'lgan. Eng yuqori o'rtacha va eng samarali bank ham xususiy banklarda bo'lgan. Ammo, standart og'ishi ham umumiy tahlil davrida eng yuqori darajada bo'lgan. Shuning uchun ham uning tebranish diapazoni ham katta bo'lgan va tahlil davrida eng samarasiz faoliyat yuritgan bank ham xususiy banklar orasida bo'lgan. Kvartillararo oraliqda joylashgan kuzatuvlar 54-75% orasida bo'lgan. Quyidagi rasmda umumiy o'rtachaning yillar kesimida o'zgarishi hamda trend berilgan.



1-rasm. Xarajatlar samaradorligi o'zgarishi, 1999-2023-y.

Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki, so'nggi 25 yilda tijorat banklari samaradroligi o'rtacha olganda tahlil davrining boshidagi 63% dan tahlil davri oxirida 67% gacha oshgan. Rasmdan ko'rish mumkinki, 1999-2006-yillarda xarajatlar bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichi pasaygan va ushbu davrda pasayish trendiga


² Xarajatlar samaradorligi modeli regressiya natijalari Илова-1 да келтирилди

³ Xarajatlar samaradorlik taqsimoti Илова-2 келтирилди.



ega bo'lgan. Ushbu davr bir qator iqtisodiy-siyosiy hamda xavfsizlik bilan bog'liq murakkab voqealarga (masalan, 1999-yildagi Toshkent portlashlari, 1998 yildagi Rossiya moliyaviy inqirozi, 2005-yildagi Andijon voqealari, Afg'oniston urushi) boy bo'lganligi bank tizimi samaradorligiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, ushbu davr bank bozoriga yangi kirib kelgan banklar (ushbu davrda 20 dan ortiq yangi banklar⁴) hamda bozor munosabatlariga o'tish jarayonidagi bank menejerlarining yangi avlodi yetishib chiqayotgan davr edi. Bu yangi banklar va menejerlar hali bank xarajatlarini samarali boshqarish malakasiga yetarli darajada ega bo'lmagan bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'sha davrda texnologiya darajasining pastligi va operatsion jarayonlarining ko'p mehnat talab etishi xarajatlar samaradorligiga salbiy ta'sir qilgan.

2006-yildan so'ng banklarning xarajatlar bo'yicha samaradorligi o'sish trendiga ega bo'lgan. Samaradorlikning bunday ijobiy o'zgarishiga yillar davomida ro'y bergan texnologik o'zgarishlar va banklar xarajatlarini boshqarish bo'yicha bank menejerlarining malakasining oshishi sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Tahlil davri boshida samaradorlik ko'rsatkichi tebranish darajasi yuqori bo'lgan, bu samaradorligi turlicha bo'lgan yangi banklarning bozorga kirib kelishi bilan bog'liq bo'lgan bo'lishi mumkin. Jahon moliyaviy inqirozi davrida esa xarajatlar bo'yicha samaradorlik turg'unlik holatida bo'lgan hamda biroz pasayish kuzatilgan. Bundan O'zbek banklari jahon moliyaviy inqirozini o'z xarajatlarida sezishganligini anglash mumkin. Keng ko'lamli islohotlar boshlangan 2017-yil rasmda alohida chiziq bilan belgilangan bo'lib, undan ko'rish mumkinki, banklar xarajatlar bo'yicha samaradorligida sezilarli darajada ijobiy o'zgarish bo'lgan. Bu iqtisodiyotning liberallashtirilishi, xususi va xorijiy banklarning kirib kelishi, davlat ulushi mavjud banklar ma'lum sohaga ixtisoslashishi kamaytirilishi va transformatsiya qilinishi bilan bog'liq o'zgarishlar bilan yuz bergan. Biroq, pandemiya davrida xarajatlar samaradorligi yana turg'unlashganligini va bu jarayon Rossiya-Ukraina mojarolari fonida yanada uzoqroq davom etishi mumkin.



2-rasm. Mulkchilik shakliga ko'ra samaradorlik o'zgarishi.

Xarajatlar bo'yicha samaradorlik tahliliga ko'ra, davlat bevosita egalik qiluvchi banklar deyarli tebranishlarsiz bir maromda o'zish trendiga ega bo'lgan. Davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar esa 2017-yilda boshlangan keng ko'lamli islohotlardan keyin samaradorlik ko'rsatkichini sezilarli darajada oshishiga olib kelgan va bir maromda oshishda davom etgan. Xususi banklar 2005-yildan so'ng o'rtacha olganda boshqa mulkchilik shakliga ega banklarga qaraganda doimiy ravishda samarali faoliyat olib borishgan. Ammo, jahon moliyaviy inqirozi va pandemiyadan eng ko'p samaradorligi pasaygan banklar ham xususi banklar bo'lgan. Xorijiy banklar tahlil davrining boshida eng yuqori darajadagi samaradorlikka ega bo'lishgan, biroq 2004-yildan boshlab ularning samaradorligi keskin pasayib ketgan va hozirga qadar 1999-yilgi darajalarga o'rtacha olganda faqatgina xususi banklar erishdi.

Banklar xarajatlar bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichi banklar mulkchilik shakliga ko'ra yetarli darajada farqlimi degan savolga javob berish uchun bir har bir mulkchilik shakliga ko'ra o'rtachalari tengligi test qilib ko'rildi. Test natijasi banklar mulkchilik shakliga ko'ra samaradorligida statistik jihatdan ahamiyatli darajada farq mavjudligini ko'rsatmoqda. Qaysi mulkchilik shakliga ega banklar samaradorligi o'rtachalari orasidagi farq mavjudligini Tukey testi orqali aniqlab, qiyosiy tahlilni amalga oshiramiz.

4 Tahlil davrida tijorat banklari hafta sikli Ilova-3 da keltirildi.



3-jadval. Xarajatlar samaradorligining banklar mulkchiligiga ko'ra tahlili.

Guruhlar juftligi		Farqi	Std. Og'.	P-qiyamat
Aksiyadorlik tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	-0.058	0.023	0.005
Aksiyadorlik tijorat banklari	Xorijiy tijorat banklari	-0.020	0.021	0.587
Aksiyadorlik tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	0.041	0.015	0.003
Davlat tijorat banklari	Xorijiy tijorat banklari	0.038	0.027	0.244
Davlat tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	0.099	0.023	0.000
Xorijiy tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	0.061	0.021	0.001

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan test natijalaridan davlat bevosita egalik qiluvchi va bilvosita egalik qiluvchi banklarning xarajatlar bo'yicha samaradorligi o'rtachasida statistik jihatdan ahamiyatli darajada farq mavjud. Ammo, ushbu davlat ulushi mavjud banklar bilan va xorijiy banklar xarajatlar samaradorligi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli darajada farq mavjud emas. Davlat ulushi mavjud banklar va xorijiy banklarning xarajatlar samaradorligi xususiy banklarnikidan statistik jihatdan sezilarli darajada farqli.

1999–2023-yillar davrida o'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston tijorat banklarining o'rtacha xarajat samaradorligi 63,5% darajani tashkil etgan. Bu shuni anglatadiki, banklar amalga oshirgan operatsiyalarida eng yaxshi amaliyotlarga nisbatan o'rtacha 36,5% potensial samarasizlik mavjud bo'lgan. Tahlil davrida samaradorlik ko'rsatkichlari 34% dan 100% gacha diapazonda o'zgarib turgan.

Mulkchilik shakli bo'yicha tahlil quyidagilarni ko'rsatdi: davlatga tegishli banklarda o'rtacha samaradorlik eng past darajada – 57,1% bo'lgan. Shu bilan birga, 2017-yilda boshlangan keng ko'lamli moliyaviy va institusional islohotlardan so'ng ularda ijobiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususiy banklar esa o'rtacha eng yuqori samaradorlikka ega bo'lib, bu ko'rsatkich 67% ni tashkil etgan, ammo ularda samaradorlikning tebranuvchanligi boshqa guruhlariga qaraganda ancha yuqori. Bu xususiy banklar orasida ham juda samarali, ham eng past samaradorlikka ega banklar mavjudligini ko'rsatadi. Aksiyadorlik va xorijiy banklar oraliq o'rinni egallab, samaradorlik darajasi o'rtachadan biroz yuqori, ammo davlat banklaridan sezilarli ravishda yuqori natijalarga erishgan.

Yillar kesimidagi dinamika shuni ko'rsatdiki, tahlilning dastlabki yillarida (1999–2006) xarajat samaradorligi pasaygan. Bu davrda bozorga turli samaradorlik darajasiga ega yangi banklarning kirib kelishi va tarkibiy o'zgarishlar asosiy omil bo'lgan. 2006 yildan keyin esa samaradorlikda o'sish tendensiyasi kuzatilgan va bu jarayon 2017-yildagi islohotlarga davom etgan. 2017-yildan so'ng o'sish yanada tezlashgan, asosiy omillar sifatida bank tizimining liberallashtirish, raqobat muhitining yaxshilanishi va davlat banklarining tarkibiy transformatsiyasi qayd etildi.

Biroq, 2008–2009-yillardagi global moliyaviy inqiroz va 2020–2021-yillardagi pandemiya davrlarida xarajat samaradorligi to'xtab qolgan yoki pasaygan. Inqiroz davrida bu ko'proq tashqi moliyaviy sharoitning yomonlashishi bilan bog'liq bo'lsa, pandemiya ichki iqtisodiy faoliyatning cheklanishi va bank operatsiyalaridagi uzilishlar asosiy ta'sir ko'rsatgan.

Umuman olganda, davlat banklarida xarajat samaradorligiga eng katta ta'sir qiluvchi omillar – boshqaruv samaradorligi va xarajat tuzilmasining optimallashtirilmaganligi. Xususiy banklarda esa katta samaradorlik imkoniyatlari bor, ammo ularda barqarorlik muammosi mavjud. Shu bois, davlat banklarida xarajat auditini o'tkazish, xususiy banklarda esa risk-menejment va xarajat nazoratini kuchaytirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimining samaradorligini oshirish uchun choralar bir vaqtning o'zida davlat banklari, xususiy sektor va xorijiy ishtirokchilarga yo'naltirilgan holda ishlab chiqilishi zarur. Davlat banklarida eng katta muammo sifatida xarajat tuzilmasining optimallashtirilmaganligi va boshqaruv samaradorligining pastligi kuzatildi. Shu sababli, qisqa muddatli istiqbolda bu banklarda to'liq xarajat auditini o'tkazish, xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil qilish ustuvor vazifa bo'lishi kerak. Shu bilan birga, korporativ boshqaruv standartlarini bosqichma-bosqich joriy etish va davlat ishtirokini qisqartirish orqali, o'rta muddatli davrda bu banklarni bozor mexanizmlariga moslashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Aksiyadorlik banklari uchun asosiy vazifa foyda samaradorligini oshirish va daromad manbalarini kengaytirishdir. Bu maqsadda, xizmat turlarini diversifikatsiya qilish, korporativ mijozlar segmentini kengaytirish va innovasion moliyaviy xizmatlar orqali yangi bozor ulushlarini qo'lga kiritish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, ularning kapital yetarliligi va likvidlik boshqaruvini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat ulushi mavjud tijorat banklarini xususiylashtirish yoki ularning rag'batlantirish tizimini bozor shartlariga moslashtirish jarayonida natijaga asoslangan rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Ana shunday mexanizmlardan biri sifatida aksiya opsi (stock option) tizimini ko'rib chiqish mumkin. Bu usulda bank rahbarlari va xodimlariga bank aksiyalarini kelgusida belgilangan narxda sotib olish huquqi beriladi. Bunday yondashuvning afzalligi shundaki, xodimlar o'zlari ishlayotgan bankda bevosita mulkdor sifatida ishtirok etadi, bu esa ularning bankka bo'lgan sadoqatini oshiradi hamda davlat ulushi mavjud banklarning aksiyalari nazoratsiz ravishda xorijiy investorlar qo'lga o'tib ketishining oldini olishi mumkin.

Biroq, davlat banklarida aksiyalar birjada erkin muomalada bo'lmagani sababli, aksiya opsi mexanizmining samaradorligi cheklanishi mumkin. Bozor bahosining yo'qligi xodimlarga berilgan opsi onlarning qiymatini aniq baholash imkoniyatini pasaytiradi, natijada ular ushbu huquqdan foydalanmasligi mumkin. Shuningdek, rag'batlantirish tizimi samarali ishlashi uchun KPI'lar (asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) aniq belgilanishi va ular bank qiymatini oshiradigan asosiy omillar bilan bevosita bog'lanishi zarur.

Agar Hukumat davlat ulushi mavjud bo'lgan bankni xususiylashtirishni rejalashtirmasa, unda xodimlarga real aksiyalar berishni ko'zda tutmaydigan mexanizmlar afzal bo'lishi mumkin. Shunday mexanizmlardan biri – Stock Appreciation Rights (SARs) bo'lib, u xodimga real aksiya bermasdan, bankning ichki hisob-kitob asosida belgilangan "qiymat"ining oshishiga bog'langan pulli mukofot olish huquqini beradi. Hatto aksiyalar birjada sotilmasa ham, qiymatni aniqlash uchun bankning sof aktivlar qiymati, rentabellik ko'rsatkichlari yoki samaradorlik indeksi kabi ichki mezonlardan foydalanish mumkin.

SARs mexanizmi menejment manfaatlarini bankning uzoq muddatli samaradorligi bilan bog'laydi, xarajat samaradorligini oshirishga undaydi hamda xususiylashtirish jarayoniga tayyorgarlik bosqichida qiymat yaratishga rag'batlantiradi. Xuddi shu kabi yondoshuv sifatida fantom aksiyalar (phantom stocks) mexanizmini ham qo'llash mumkin, bunda xodimlar real aksiyaga egalik qilmaydi, ammo bank aksiyasi kabi baholanadigan virtual birliklar orqali qiymat oshishidan foyda oladi.

Bu mexanizmlarning muvaffaqiyati, avvalo, to'g'ri KPI'lar tanlanishiga bog'liq bo'lib, ular bank qiymatini oshirishi yoki samaradorlikni bevosita yaxshilashi mumkin bo'lgan omillarni aks ettirishi lozim.

Xususiy banklarda xarajat samaradorligi yuqori bo'lsa-da, ularda barqarorlik muammosi saqlanib qolmoqda. Bu holat tashqi shoklarga yuqori sezgirlik va ichki risk-menejment tizimlarining yetarli darajada samarali emasligi bilan bog'liq. Shuning uchun, ularda ichki risk boshqaruvi tizimlarini kuchaytirish, stress-testlash amaliyotlarini joriy etish va xarajat nazoratini yaxshilash kerak. O'rta va uzoq muddatda esa xususiy banklar o'z kapital bazasini mustahkamlashi, faoliyatini diversifikatsiya qilishi va raqobatda ustunlik beradigan yangi moliyaviy mahsulotlarni joriy etishi zarur.

Xorijiy banklar samaradorligidagi tebranuvchanlik, ayniqsa, global iqtisodiy beqarorlik davrida sezilarli bo'ladi. Shu sababli, ular mahalliy bozordagi faoliyat strategiyalarini qayta ko'rib chiqishi, ichki iqtisodiy omillarga moslashgan kredit va investisiya siyosatini ishlab chiqishi, hamda operatsiya xavflarini diversifikatsiya qilish orqali barqarorlikni ta'minlashi zarur.

Uzoq muddatli istiqbolda butun bank tizimi uchun umumiy maqsad – raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarga investisiyani oshirish orqali operatsiya samaradorligini yanada yaxshilash, hamda xalqaro samaradorlik baholash tizimlariga integratsiya qilishdir. Bu nafaqat ichki bozorda raqobatbardoshlikni oshiradi, balki O'zbekiston bank tizimining xalqaro moliya bozorlaridagi obro'sini ham mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A. Micco, U. Panizza, and M. Yañez, "Bank ownership and performance. Does politics matter?," J Bank Financ, vol. 31, no. 1, pp. 219–241, Jan. 2007, doi: 10.1016/J.JBANKFIN.2006.02.007.
2. P. Molyneux, Bank performance, risk and firm financing. Springer, 2011.
3. J. P. Bonin, I. Hasan, and P. Wachtel, "Bank performance, efficiency and ownership in transition countries," J Bank Financ, vol. 29, no. 1, pp. 31–53, 2005.
4. W. W. Cooper, L. M. Seiford, and K. Tone, Data envelopment analysis: A comprehensive text with models, applications, references and DEA-solver software: Second edition. 2007. doi: 10.1007/978-0-387-45283-8.
5. H. Fukuyama and R. Matousek, "Modelling bank performance: A network DEA approach," Eur J Oper Res, vol. 259, no. 2, pp. 721–732, Jun. 2017, doi: 10.1016/J.EJOR.2016.10.044.
6. F. Kamarudin, F. Sufian, N. Aina, M. Anwar, and H. I. Hussain, "Bank Efficiency in Malaysia a DEA Approach," vol. 71, no. 595, pp. 133–162, 2019, doi: 10.2478/jcbtp-2019-0007.
7. S. Khannaev, "Efficiency of Banks in Uzbekistan: A DEA Approach," European Journal of Business and Management, vol. 12, no. 9, pp. 22–26, 2020, doi: 10.7176/EJBM/12-9-03.
8. B. Casu, C. Girardone, and P. Molyneux, "Productivity change in European banking: A comparison of parametric and non-parametric approaches," J Bank Financ, 2004, doi: 10.1016/j.jbankfin.2003.10.014.



9. T.-H. Huang and M.-H. Wang, "Comparison of Economic Efficiency Estimation Methods: Parametric and Non-parametric Techniques," *Manchester School*, vol. 70, no. 5, pp. 682–709, 2002, [Online]. Available: <https://econpapers.repec.org/RePEc:bla:manchs:v:70:y:2002:i:5:p:682-709>
10. F. Pasiouras, S. Tanna, and C. Zopounidis, "The impact of banking regulations on banks' cost and profit efficiency: Cross-country evidence," *International Review of Financial Analysis*, 2009, doi: 10.1016/j.irfa.2009.07.003.
11. Y. Luo, S. Tanna, and G. De Vita, "Financial openness, risk and bank efficiency: Cross-country evidence," *Journal of Financial Stability*, vol. 24, pp. 132–148, Jun. 2016, doi: 10.1016/J.JFS.2016.05.003.
12. C. Gaganis, E. Galariotis, F. Pasiouras, and C. Staikouras, "Macroprudential regulations and bank profit efficiency: international evidence," *J Regul Econ*, vol. 59, no. 2, pp. 136–160, Apr. 2021, doi: 10.1007/S11149-021-09424-5/TABLES/7.
13. I. Gržeta, S. Žiković, and I. Tomas Žiković, "Size matters: analyzing bank profitability and efficiency under the Basel III framework," *Financial Innovation*, vol. 9, no. 1, pp. 1–28, Dec. 2023, doi: 10.1186/S40854-022-00412-Y/TABLES/8.
14. C. Gaganis and F. Pasiouras, "Financial supervision regimes and bank efficiency: International evidence," *J Bank Financ*, vol. 37, no. 12, pp. 5463–5475, Dec. 2013, doi: 10.1016/J.JBANKFIN.2013.04.026.
15. B. Székely, "Bank efficiency differences across Central and Eastern Europe," 2018, Accessed: Mar. 10, 2025. [Online]. Available: <https://www.econstor.eu/handle/10419/189895>
16. B. Shen, A. A. Perfilev, L. P. Bufetova, and X. Li, "Bank Profitability Analysis in China: Stochastic Frontier Approach," *Journal of Risk and Financial Management* 2023, Vol. 16, Page 243, vol. 16, no. 4, p. 243, Apr. 2023, doi: 10.3390/JRFM16040243.
17. V. Belousova, A. Karminsky, and I. Kozyr, "Bank Ownership and Profit Efficiency of Russian Banks," *SSRN Electronic Journal*, Feb. 2018, doi: 10.2139/SSRN.3128149.
18. Ш. Ханнаев, "Турли мулкчилик шаклидаги банклар фаолияти самарадорлиги таҳлили," *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*, vol. 1, no. 39, pp. 1–15, 2019, [Online]. Available: http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/22_Khannayev.pdf
19. Ш. Ханнаев, "Тижорат банклари фаолиятини харажатлар бўйича самарадорлигини баҳолаш: ўзгарувчан кўлам қайтими асосида маълумотларнинг қобиқ таҳлили усули," *Иқтисодиётда инновациялар*, vol. 2, no. 3, pp. 93–104, 2020, doi: <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2020-2-12>.
20. Ш. Ханнаев, "Анализ эффективности банков с разными формами собственности," *Экономика и инновационные технологии*, no. 1, pp. 194–208, 2019.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>